

**MAKTAB PSIXOLOGINING O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALТИРИШ  
ISHLARI**

**Adizova Gulnavoz Farhodovna**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kasb va kasb tanlash muammosi, uning psixologik aspektlari, xususiyatlari va dolzarbligi muhokama qilingan. Shuningdek, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy omillar haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *kasb, psixolog, kasbiy tayyoragarlik, shaxs kamoloti, qiziqish, intellect, kasbiy tanlov.*

**Abstract:** *This article discusses the problem of career and career choice, its psychological aspects, features and relevance. It also discusses the key factors that students need to consider when pursuing a career.*

**Keywords:** *profession, psychologist, professional training, personal development, interest, intellect, career choice.*

## **KIRISH**

Bizga ma'lum, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyoragarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni u mакtabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'yantirib qo'yayotgani tabiiy.

## **ASOSIY QISM**

Maktab psixologining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning kasblarni tahlil qila olishi; o'zlarining shaxsiy sifatlarini, qiziqishini va salomatlik darajalarini to`g'ri baholay olishlari, kasblarning insonga qo`yadigan talablari bilan o'zlarining individual xususiyatlarini taqqoslay olishlari, shaxsiy kasbiy rejalarini tuza olishga o'rgatishi lozim.

Kasblar bo'yicha birlamchi bilim, ko'nikmalarni shakllantirish uchun professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar mакtab psixologlari

tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu borada respublikamizda “O’quvchilarni kasbhunarga yo’naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi” tashkil etilgan.

Bu markaz O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko’zda tutilgan maktab amaliyotchi psixologlari jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida o’quvchilarning o’z qiziqishlari, qobiliyatları va sog’liqlariga mos bo’lgan kasbhunarlarni tanlashlariga ko’maklashadi. Ushbu markaz o’quvchi yoshlarni kasbhunarga yo’naltirish va psixologik-pedagogik tashxis sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va o’rnatilgan tartibga amalga oshirish, O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining kasb-hunarga yo’naltirish respublika tizimini tashkiliy, ilmiy-metodik, axborot- ma’lumot va dasturiy ta’minlash maqsadida tashkil etilgan.

Kasb-hunarga yo’naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlari holatini nazorat qilish, uni takomillashtirish choralarini ko’rish, tegishli dasturlar, me’yoriy hujjatlar va tavsiyalar ishlab chiqish; mamlakatimizdagi va xorijiy davlatlarning ilg’or tajribalarini umumlashtirish, ommalashtirish va hayotga tadbiq etish; barcha bosqichdagi o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis markazlari va ta’lim muassalaridagi kasb-hunarga yo’naltirish vazifasi yuklatilgan mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish; umumiy o’rta ta’lim maktablari o’quvchilarining hayotiy va kasbiy o’zligini anglash borasidagi ustuvor dasturlar va muammolar bilan ishslash respublika tashxis markazining eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

O’zbekiston mustaqillikni qo’lga kiritilgan yildan boshlab ta’lim tizimida tub o’zgarishlar ro`y bermoqda. «Ta’lim to`g`risida» gi Qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning qabul qilinishi natijasida xalq xo`jaligining malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash tizimi yaratilmoqda.

Maktabdagagi amaliyotchi psixologning kasb tanlashga yo’llash ishlari quyidagi maqsadlarni ko`zda tutadi.

1. O’quvchilarni kichik sinflardan boshlab xalq xo’jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib borish.

2. O’quvchilarni xalq xo’jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib, ommaviy kasblarning mazmuni, sinfdan tashqari o’tkaziladigan tadbirlarni amalga oshirish.

3. Kasb tanlashga yo’llash ishlarini olib borishda o’quvchilarni asosan maktab hududida joylashgan korxona, tashkilotning ehtiyoji uchun zarur bo’lgan kasb va mutaxassislarga yo’llash.

4. Har bir o’quvchining bo`lajak kasbni tanlashi obyektiv va ongli harakatlarga ega bo`lishi lozim.

O’quvchilarni kasb tanlashga yo’llash sohasida oldiga qo`yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi eng muhim vazifalar hal etilish lozim.

I. Ularning qiziqishlari, mayllari va qobiliyati, psixofiziologik imkoniyatlari, jismoniy tayyorligi va salomatligi o’rganilishi

**II.** Ularning kasblar haqidagi bilimlarini kengaytirishga doir tadbirlar o`ylab ko`riliishi

**III.** Tanlangan mehnat sohasidagi amaliy faoliyatning tashkil etilishi bu o`quvchilarining kasbga qiziqishlarini rivojlantirish va mustaxkamlashga yordam beradi

**IV.** Maktabni bitirib chiqayotgan yoshlarning kasbga qat'iy qiziqishlarini tarkib toptirish va mustahkamlashda yordam ko`rsatish, ishlab chiqish sharoitlariga ko`nikishiga doir tadbirlar belgilanishi kerak.

Kasb tanlash juda muhim masala bo`lib ko`pincha o`quvchilar uni mustaqil hal qila olmaydilar. Bu masalada ularga maktab psixologlari yordam berishi kerak.

### **XULOSA**

Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to`g`risida o`ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qildilar. Ko`pgina maktab bitiruvchilari kelajakda kim bo`lsam ekan yoki qaysi sohaning mutaxassis bo`lsam ekan? – degan savolni o`z oldilariga qo`yib, kasb tanlash muammosiga duch kelishadi. Natijada o`quvchilar tomonidan mutaxassisliklar tasodifan tanlanadi. Hech qanday maxsus tayyorgarlikka ega bo`lmasdan yoki kasbiy kelajagini tushunib etmasdan maktab bitiruvchilarining bir qismi darhol ishga joylashadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G`oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O`zMU, 2003. 156-b
2. Yusupova F. I. O`quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta’limi” jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
3. Maxmudova .D. “O`quvchilarni kasbga yo‘naltirishga oid pedagogi k faoliyat element lari orasidagi uzviylik va uzlusizlikni ta’minlash”. Xalq ta’limi jurnali. №3 son, 57-58 bet.